

O'ZBEK TILIDAGI LEKSIK BO'SHLIQLARNI TO'LDIRISH MASALALARI (SO'NGGI YUZ YILLIK MISOLIDA)

Abdumannon Majidovich HASANOV

PhD, doktorant

O'z FA O'zbek tili, adabiyoti va folklori instituti

Toshkent, O'zbekiston

ПРОЦЕССЫ ЗАПОЛНЕНИЯ ЛЕКСИЧЕСКИХ ЛАКУН В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ (НА ПРИМЕРЕ ПОСЛЕДНИХ СТА ЛЕТ)

Абдуманнон Маджидович ХАСАНОВ

PhD, докторант

Институт узбекского языка, литературы и фольклора АН Узбекистана

Ташкент, Узбекистан

PROCESS OF FILLING THE LEXICAL GAPS IN THE UZBEK LANGUAGE (EXAMPLE OF THE LAST HUNDRED YEARS)

Abdumannon Majidovich KHASANOV

PhD, Doctoral student

The Academy of Sciences of Uzbekistan

Institute of the Uzbek Language, Literature and Folklore

Tashkent, Uzbekistan abdumannonhasanov3137@gmail.com

UDC (UO'K, УДК): 811.512.133'28

For citation (иктибос келтириш учун, для цитирования):

Hasanov A.M. O'zbek tilidagi leksik bo'shliqlarni to'ldirish masalalari (so'nggi yuz yillik misolida). // O'zbekistonda xorijiy tillar. — 2023. — № 3 (50). — B. 7-15.

<https://doi.org/10.36078/1687162213>

Received: April 21, 2023

Accepted: June 17, 2023

Published: June 20, 2023

Copyright © 2023 by author(s).

This work is licensed under the Creative Commons Attribution International License (CC BY 4.0).

<http://creativecommons.org/licenses/by/4.0/>



Open Access

Annotatsiya. Maqolada so'nggi yuz yillikda o'zbek tili leksikasining boyish masalalari tahlilga tortilgan. Muayyan davrdagi til leksikasi taraqqiyotini kuzatish orqali til leksikasining tadrijiy rivojlanishini, unda hali o'z ifodachisiga ega bo'lmagan tushunchalarni atash imkoniyatiga ega bo'lgan yangi so'zlarning paydo bo'lishini aniqlash mumkin. Bu kabi kuzatishlar til leksikasining ijtimoiy hayotga munosabatini, tafakkur rivojiga mutanosib taraqqiy etayotganligini va uning ichki resurslar hisobiga boyishda qaysi usullardan foydalanish unumli va ommabop ekanligini baholashga imkon beradi. Maqolada XX asrning ikkinchi choragidan boshlab til leksikasini boyitish, me'yorlashtirish, tartibga solish borasidagi ishlarga diqqat qaratildi. Xususan, leksikografik va dialektologik tadqiqotlarda kam qo'llaniluvchi muhim so'zlarni adabiy til leksikasiga kiritish bo'yicha taklif va tavsiyalarining joriylanishi, mazkur holatda amal qilinishi kerak bo'lgan me'yor va tamoyillar haqida ham mulohazalar bildirildi. Bu xildagi ishlarning til sofliги va rivojlanishidagi ahamiyatli jihatlari ko'rsatib berildi. Til leksikasini boyitishda ichki imkoniyatlarga e'tibor qaratishning lingvistik va milliy-ijtimoiy ahamiyatga ega ekanligi ta'kidlandi.

Kalit so'zlar: til taraqqiyoti; leksik bo'shliq; leksik bo'shliqni to'ldirish; adabiylashuv; barqarorlashuv; leksik taraqqiyot; nomsiz tushuncha; nominatsiya.

Аннотация. В статье анализируются вопросы обогащения лексики узбекского языка за последние сто лет. Наблюдая за развитием лексики языка в определенный период, можно увидеть

постепенное развитие лексики языка, появление новых слов, обладающих способностью называть понятия, еще не имеющих своих представителей. Такие наблюдения позволяют оценить отношение лексики языка к общественной жизни, развитие мышления пропорционально его развитию, какие методы эффективны и популярны в его обогащении за счет внутренних ресурсов. В данной статье основное внимание уделялось обогащению, стандартизации и упорядочению языковой лексики со второй четверти 20 века. В частности, также обсуждались предложения и рекомендации по включению в лексикон литературного языка важных слов, редко употребляемых в лексикографических и диалектологических исследованиях, а также нормы и принципы, которых следует придерживаться в этом случае. Показаны важные аспекты такого рода работы для чистоты и развития языка. Подчеркнуто, что внимание к внутренним возможностям языка в обогащении словарного запаса имеет языковое и национально-социальное значение.

Ключевые слова: языковое развитие; лексический пробел; заполнение лексического пробела; литературизация; стабилизация; лексическое развитие; безымянный концепт; номинация.

Abstract. The article analyzes the issues of enriching the vocabulary of the Uzbek language over the past hundred years. Observing the development of the vocabulary of a language in a certain period, one can determine the gradual development of the vocabulary of the language, the emergence of new words that name the concepts which do not yet have their representatives. Such observations make it possible to assess the relation of the vocabulary of the language to social life, the development of thinking in proportion to its development, the effective methods in enriching it at the expense of internal resources. This article has focused on the enrichment, standardization and streamlining of language vocabulary since the second quarter of the XX century. In particular, proposals and recommendations for including important words that are rarely used in lexicographic and dialectological studies into the lexicon of the literary language, as well as the norms and principles that should be followed in this case, were also discussed. It is emphasized that the attention to the internal possibilities in enriching the vocabulary of the language has linguistic and -social significance.

Keywords: language development, lexical gap, lexical gap filling, literaryization, stabilization, lexical development, nameless concept, nomination.

Kirish. Jamiyat taraqqiy etar ekan, inson ruhiyatidagi o'zgarishlar va uning lisoniy imkoniyatlari davrning talab va ehtiyojlariga moslashib boradi. Ayni shu sabablar bilan til leksikasi ham to'kislashib, boyib, o'z hayotiy faoliyatini davom ettiraveradi. Tilning zamonlar osha yashashi va insonlarga aloqa vositasi sifatida xizmat qilishida vaqt o'lchovining ham o'z ta'siri bor (7, 93). Davr o'tishi bilan barcha voqelik kabi tilda ham muayyan o'zgarishlar sodir bo'ladi va bu tabiiy jarayon sifatida tushunilishi kerak.

O'zbek adabiy tilining barqarorlashuv jarayonlarida til leksikasidagi bo'shliqlarni to'ldirish tajribalari, tildagi leksik-semantik jarayonlarga ongli aralashuv til sofligini saqlab qolish va uning ifoda imkoniyatlarini kengaytirish uchun juda muhim ekanligini ko'rsatadi. Albatta, til leksikasi taraqqiyotining har qanday bosqichida joriy davrga mos va xos til normasini, ehtiyojlarini o'rganish, shu asosda leksik sathdagi bo'shliqlarni to'ldirishga munosib (muqobil) shakllarni topish hamda ommalashtirish tilshunoslikning muhim vazifalaridan sanaladi.

Hozirgi zamon o'zbek adabiy tilining leksik me'yorlarini belgilash va uning leksik boyishida ichki imkoniyatlarga asoslanish lozimligiga XX asrning ikkinchi choragidan e'tibor qaratila boshlandi. Xususan, 1929-yil may oyida o'tkazilgan Til islohoti va imlo konferensiyasida imloni takomillashtirish bilan birga adabiy til leksik normalarini belgilash yuzasidan ham bir qator chora-tadbirlar ko'rishga, o'zbek tilining ichki imkoniyatlarini o'rganish, shu asosda adabiy tilni va uning leksik normalarini belgilashga ham e'tibor berildi. Chunonchi, mazkur konferensiya qarorlarida so'zlashuv va shevaga xos so'zlarni adabiy tilga qabul qilish mezonlari va bu usulning til boyishidagi maqbul (va matlub)ligi alohida ta'kidlanadi:

“4-O'zbek adabiy tilini O'zbekistondagi rayo'nlarining har qaysisida bo'lg'on har qanday shevadan oling'on yangi so'zlar va shakillar bilan boyitu mumkin va lozimdur, faqat bu yangi so'z va shakillarning quyidagi shartlarga muvofiq bo'luvlari matlubdir:

- 1) u so'z va shakillar butun o'zbek xalqi uchun tushinishli bo'lsa;
- 2) u so'z va shakillar o'zbek xalqining, shubhasiz, ko'pchiligiga tushinishli bo'lsa;
- 3) u so'z va shakillar butun o'zbek tili o'sishining jarayonida tug'ilip, xalqqa tushinishli va tilning boyivi uchun zarur bo'lsalar” (2, 4).

Yetuk tilshunoslar, ziyolilar va jadidlar tomonidan amalga oshirilgan sa'y-harakatlar natijasida hozirgi o'zbek adabiy tili, asosan, o'zbek tilining ichki imkoniyatlaridan oziqlantirildi (1, 152), umumxalq tilining aksar umumiy xususiyatlari adabiy tilning asosiy me'yorlari sifatida belgilandi. Shundan keyingi salkam bir asrlik davr mobaynida ham tilning ichki imkoniyatlaridan adabiy tildagi muayyan bo'shliqlarni to'ldirishda samarali foydalanilmoqda. Mazkur jarayonda til leksikasidagi muayyan nomsiz tushunchani nomlash uchun tilshunoslar tomonidan ham tegishli tavsiyalar berib borilganligini ham alohida qayd etish joiz.

Til leksikasining muayyan davrdagi o'zgarishlarini tahlil qilish, uning umumiy rivojlanish tendensiyalarini belgilash tilshunoslikning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Bu kabi tahlil va kuzatishlar til leksikasining ijtimoiy hayotga munosabatini, tafakkur rivojiga mutanosib taraqqiy etayotganligini va uning ichki resurslar hisobiga boyishida qaysi usullar unumli va ommabop ekanligini baholashga imkon beradi.

Dunyo tilshunosligida bu kabi tahliliy kuzatishlar o'tgan asrda ancha ommalashgan (8, 15). Buning natijasida til leksikasi rivojiga

ta'sir etuvchi turli omillarni tavsiflashga va ularni maqsadga muvofiq yo'naltirishga harakat qilingan. Mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlar o'zbek tilshunosligida ham talaygina. Xususan, XX asr boshlaridayoq yetuk tilshunoslarimiz til leksikasidagi arabcha, forsha so'zlar miqdori va miqyosiga, shuningdek, o'sha davrda o'zga tillardan kirib kelayotgan birliklarga o'zlarining tanqidiy-tahliliy munosabatini bildirgan; o'zbek tilining o'z ichki imkoniyatlari bisyorligi, ulardan foydalanishning maqsadga muvofiqligi ta'kidlangan (1, 151).

Til leksikasining umumiy rivojlanish tendensiyalarini baholashda ham uning muayyan davrdagi o'zgarishlarini tahlil qilish lozim bo'ladi. Bu boradagi tadqiqotlar ham milliy tilshunosligimizda talaygina. Xususan, G'. Karimovning "20-30-yillar o'zbek adabiy tilning rivojlanish masalalari (ot turkumidagi so'zlar bo'yicha)" nomli nomzodlik dissertatsiyasida tegishli yillarda o'zbek tili leksikasidagi bo'shliqlarning to'ldirilish jarayonlari atroflicha tadqiq etiladi (7, 131–141). Mazkur ishda muayyan badiiy asarlarda va matbuotda qo'llanilgan so'zlarning adabiylashuv jarayonlari haqida faktik misollar keltiriladi. Adabiy til leksikasida barqarorlashayotgan leksemalar ot turkumi doirasida statistik jihatdan baholanadi. Xuddu shu yo'nalishdagi tadqiqotlardan biri A. Hojiyevning "Sovet davrida o'zbek adabiy tilining taraqqiyoti" nomli kitobida ham sho'rolar davridagi o'zbek tili leksikasining rivojlanish jarayonlari, til leksikasida yangi so'zlarning paydo bo'lishi, ularning adabiy tilga singib borishi haqida mulohazalar bildirilgan (14, 188).

XX asrning so'nggi choragida, xususan istiqlol yillarida o'zbek tili leksikasining o'zgarish va boyish jarayonlari professor N. Mahmudov o'zining "O'zbek tili lug'at boyligi rivojida faollashgan jarayonlar" nomli maqolasida atroflicha ma'lumot beradi (10, 3–16). Olim so'nggi yillarida o'zbek tili leksikasining o'z ichki imkoniyatlari asosida rivojlanayotganligini, shuningdek, sobiq sovet davrida "yuzi qora" bo'lgan ayrim so'zlarning bugungi so'zlashuv jarayonlarida oldingidek o'z (ijobiy, asl) ma'nolari bilan ishlatilayotganligini ta'kidlaydi.

So'nggi yillarda tilimizdagi leksik o'zgarishlari atroflicha tadqiq etishga qaratilgan ishlardan biri Y. Odilovning "Globallashuv davri publitsistikasi tilining taraqqiyoti" nomli monografiyasidir. Mazkur monografiyada olim istiqlol yillarida o'zbek tili leksikasi tartibli va tizimli tarzda rivojlanishini publitsistik uslub va matnlar misolida tadqiq etgan (12, 17). Bugungi kunda til leksikasida ommalashayotgan va barqarorlashayotgan birliklarning lisoniy, ijtimoiy va madaniy xususiyatlarini tavsiflab bergan.

Til leksikasidagi bo'shliqlarni to'ldirishda ichki resurslardan foydalanish borasidagi fikrlar turli yo'nalishdagi tadqiqotlarda yo'l-yo'lakay bildirilgan bo'lsa, so'nggi yillarda mazkur masalaga jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Xususan, bu yo'nalishdagi tadqiqotlarda muayyan atovchisiz tushunchani nomlashga munosib so'zni til ichki resurslari asosida nomlash va bunday so'zlarni adabiy til leksikasiga kiritish bo'yicha tavsiyalar ham berilmoqda.

Tilshunos olimlar, xususan, lugʻatshunoslar tomonidan tildagi leksik boʻshliqlarni toʻldirish uchun tavsiya etiladigan soʻzlarning adabiylashuvi ham oson kechmaydi. Zero, til leksikasiga yangi soʻz sifatida tavsiya etiladigan har qanday birlik adabiy til uchun leksik boʻshliq hisoblanuvchi nomsiz tushunchani ifodalashga mos boʻlmasa, uni adabiy til leksikasiga olib kirishning oʻzi ham nomaqbul ishdir. Chunki adabiy til leksikasi til sohiblarining muloqoti uchun eng zarur birliklarni saralab, oʻzlashtirib olgan (boʻlgan) tilning barqaror shakli sifatida turgʻunlikka intiluvchan xususiyatlarga ega boʻladi.

Dialektologik tadqiqotlarda adabiy til leksikasiga kiritilmagan qirq mingga yaqin dialektal soʻz mavjudligi qayd etiladi (9, 56). Garchi koʻpgina dialektologik tadqiqotlarda adabiy til leksikasidagi tegishli boʻshliqni toʻldirishga munosib boʻlgan koʻplab dialektal soʻzlar tavsiya etilsa-da, ularning juda kam qismi adabiydashishi kuzatiladi. Chunki tavsiya etilgan dialektizmlarning aksariyati adabiy tildagi muayyan soʻzga maʼnodosh (muqobil) boʻladi va ularga jiddiy ehtiyoj mavjud boʻlmaydi.

Kundek ravshanki, “normativ lugʻat tuzish va unda adabiy til normalarini toʻgʻri belgilash uchun tilning butun leksik boyligi hamma manbalardan, shu jumladan, dialektlar va soʻzlashuv tilidan foydalanib tanlanishi va puxta oʻrganilishi kerak” (13, 11). Bu oʻrganishlar natijasida til sohiblarining deyarli barchasiga tushunarli boʻlgan va ular nutqida qoʻllanadigan birliklar meʼyoriy leksik birliklar sifatida eʼtirof etiladi va normativ lugʻatlarga kiritiladi. Mazkur leksik birliklarning avvaldan qoʻllanishda ekanligi, tilning ichki imkoniyatlari asosida yasalganligi, koʻpgina shevalarda yoki soʻzlashuvda faol qoʻllanilishi ularning meʼyoriyligini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Oʻzbek adabiy tilining leksik meʼyorlarini tavsiflovchi izohli lugʻatlarga kiritilgan soʻzlashuv va shevaga xos soʻzlarning miqdori va miqyosiga qarab bu boradagi tavsiyalarning qanchalik joriylanishini baholash mumkin. 1981-yilda nashr etilgan “Oʻzbek tilining izohli lugʻati”da 1112 ta soʻzlashuv tiliga xos va 715 ta shevaga xos soʻz qayd etilgan. Aniqki, lugʻat tuzuvchilar mazkur soʻzlarni adabiy til uchun ahamiyatli boʻlgani uchun lugʻatga kiritgan.

“Oʻzbek tilining izohli lugʻati uchun dialektizmlardan soʻz tanlash prinsiplari va ularning berilishi”ni 1981-yilda nashr etilgan izohli lugʻat misolida tahlil qilgan R. Jomonov mazkur lugʻatdagi dialektal soʻzlar miqdorini kam deb baholaydi (5, 79). Shuningdek, oʻz kuzatishlarida aniqlangan 500 dan ziyod soʻzni mazkur lugʻatga kiritish uchun tavsiya etadi. 2006-2008-yillarda toʻldirilgan va qayta nashr qilingan OʻTILda olim tavsiya etgan soʻzlardan *goʻmma* [152] (bu oʻrinda soʻzlar berilgan sahifa koʻrsatilmoqda)], *joʻgi* [156], *ijkilamoq* [175], *iqtibos* [157], *kadi* [158], *kuliklash* [OʻTILda *kulliklash*] [160], *koʻgan* [160], *koʻganlamoq* [160], *koʻkay* [160], *koʻlik* [161], *meng* [162], *mengzamoq* [162], *sermamoq* [168], *chakana* [aholining kichik mollari suruvi maʼnosida] [173], *choʻlpi* [175], *shivit* [175], *shumqadam* [176], *qoruvli* [179], *havasak* [181] kabi soʻzlar kiritilgan. Keyingi nashrga kiritilgan ushbu soʻzlardan *ijkilamoq*, *kadi*, *koʻkay*, *koʻlik*, *mengzamoq*, *sermamoq*, *ulgi*, *chakana*,

shivit, havasak kabi soʻzlarnigina sheva soʻzi deb baholanishi ham yuqorida qayd etilgan boshqa soʻzlarning adabiy til leksikasida allaqachon barqarorlashib ulgurganligini tasdiqlaydi.

OʻTILning har ikki nusxasini taqqoslab, uning keyingi nashrida tavsiflangan soʻzlar tarkibida soʻzlashuv va shevaga xos soʻzlar ulushi ortganligini kuzatish mumkin (hisob-kitobimiz boʻyicha keyingi nashrdagi OʻTILda 1550 ta soʻzlashuvga xos va 1177 ta shevaga xos soʻz qayd etilgan; mazkur miqdor oldingi nashrdagidan mos ravishda 1,1 va 1,6 barobar koʻproq). Mazkur miqdor keng imkoniyatli va koʻp dialektli oʻzbek tili uchun qanoatlanarli emas, bizningcha. Zero, kuzatishlarimiz koʻpgina soʻzlarni OʻTILga kiritish lozimligini koʻrsatadi

Maʼlumki, tilning leksik meʼyorlarini tavsiflovchi izohli lugʻatlar mashaqqatli mehnat evaziga maydonga keladi. Ayniqsa unga turli nutqiy vaziyatlarda qoʻllaniladigan soʻzlarni tanlab, saralab kiritish lugʻatshunoslardan sinchkovlik va ziyraklik talab qiladi. 1981–2006-yillar oraligʻida tarixiy vaziyat taqozosi bilan jamiyatning maʼnaviy, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy hayotida juda katta oʻzgarishlar, yangilanishlar sodir boʻlgan va tabiiyki, bu oʻzgarishlar til leksikasida ham aks etgan. Biroq lugʻatshunoslikning oʻziga xos talablari asosida bu oʻzgarishlarning ayrimlari 2006-2008-yillarda nashr etilgan OʻTILda aks etmagan. Shu narsa aniqki, “eng mukammal tuzilgan lugʻatlar ham barcha soʻzlarni qamrab ololmaydi. Chunki tilning asta-sekin rivojlanish jarayonida uning lugʻat sostavi ham takomillashib boradi” (6, 58). Mazkur takomillashtiruv taqozosi bilan OʻTILning soʻnggi lotincha nashriga ham bugungi kunda keng isteʼmolda boʻlgan toʻrt mingta yangi soʻz kiritildi. Albatta davrning oʻziga xos oʻzgarishlari til leksikasining muntazam boyishini taʼminlovchi asosiy omillardan biri ekanligini shu oʻrinda yana bir bor taʼkidlash lozim.

Shuni tan olish kerakki, til leksikasini boyitishda soʻzlashuv va shevaga xos soʻzlarni adabiylashtirishdan koʻra affiksatsiya hamda kalkalash usullari yordamida yangi soʻzlar hosil qilish ancha ustuvorlashib qolgan (14, 150). Mazkur holat til leksikasining ichki imkoniyatlar bilan boyitilishini yetarlicha oʻrgangan olimlar tomonidan ham tan olinadi. Taʼkidlash kerakki, til leksikasini boyitishda ichki imkoniyat sifatida affiksatsiya va kompozitsiya usuli bilan soʻz yasash aksariyat tillarda universal va optimal manba hisoblanadi. Zero, til leksikasida mavjud va hamma tushunarli morflar (soʻz yasovchi asos va qoʻshimchalar) kombinatsiyasidan minglab soʻzlarni hosil qilish mumkin. Biroq bu kombinatsiyalar hosilalari boʻlgan yasalmalar muayyan lisoniy ehtiyoj boʻlmaganda leksik tizimga kira olmaydi (oʻrnashmaydi). Mazkur yasalmalar jiddiy ahamiyatli tushunchaning nomlanishiga xizmat qilsagina, leksik meʼyor sifatida til sathida barqarorlashishi mumkin.

Adabiy til leksikasining holat va rivojiga taʼsir etuvchi ichki omillar sifatida leksik meʼyorlarning qay darajada belgilanganligi, ongli ravishda ishlanganligi, muayyan qoidalarga boʻysundirilganligi va meʼyorlarga til egalarining qay darajada amal qilishi, shuningdek, davlat va millatning tilga munosabati kabilarni keltirish mumkin (8,

72). Ayni shu omillar tilning davr va jamiyat ehtiyojlariga munosib bo'lishida muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Mazkur omillarning shakllanishida va til rivojiga oqilona ta'sir ko'rsatishida ziyolilar, xususan, tilshunos olimlarning o'rni beqiyos ekanligi aniq. Bu esa tilshunoslardan yuqorida zikr etilgan masalalarga ham jiddiy mas'uliyat bilan yondashishni taqozo etadi.

O'TILda, xususan, uning 2006-2008-yillarda nashr etilgan variantida o'zbek tilining hozirgi davrda keng iste'molda bo'lgan so'zlari ancha to'liq qamrab olingan. O'zbek tili XX asrning ikkinchi yarmida, shuningdek, keyingi yillarda yangi so'zlar bilan boyidi, shu bilan birga, sifat jihatidan ham ancha o'zgardi. Unda yangi leksik me'yor (norma)lar, yangi xususiyatlar shakllandi va bu uzluksiz davom etmoqda. Bu o'zgarishlar, albatta, tilda aks etishi tayin. Bu o'zgarishlarning til leksikasida aks etish, ya'ni yangi paydo bo'layotgan so'zlarning tilda muqimlashishi, barqarorlashishi esa ular ifodalaydigan tushunchaning ahamiyatligiga, shuningdek, bu yangi so'zlarning til ichki imkoniyatlari asosida yasalganligiga, til sohiblari lisoniy ongiga singishuvchanligiga bog'liq.

O'tgan asrning 80-90-yillarida til sofligini ta'minlash borasida qilingan sa'y-harakatlarning ayrimlari, xususan, til leksikasida *tahsilgoh*, *majalla*, *minbargoh*, *nohiya* kabi so'zlarni ommalashtirishga qaratilgan tadbirlar til rivoji uchun jiddiy ta'sir ko'rsatmagani bu xildagi tashabbuslarda muayyan tamoyillarga tayanish zarurligini ko'rsatadi. Binobarin, ommalashtirish uchun tavsiya etilayotgan so'z tilning ichki imkoniyatlari asosida yasalgan (yoki turkiy til elementi) bo'lishi va shu xususiyati bilan adabiydashishga, barqarorlashishga imkoniyatli bo'lishi jiddiy ahamiyatga ega.

Kuzatishlar ko'rsatadiki, o'sha paytlarda ommalashtirish tavsiya etilgan *tahsilgoh*, *minbargoh*, *ro'znoma* kabi so'zlarning o'zi o'zlashma so'z (yoki o'zlashma komponentli) bo'lganligi va bu til sofligi uchun jiddiy naf bermasligi mazkur so'zlarning tilda barqarorlashmasligiga va iste'moldan chiqib ketishiga olib keldi.

Bugungi kunda dunyo tamaddunidagi tezkor o'zgarishlar, islohotlar, yangilanishlar tinimsiz ravishda til leksikasining kengayib borishini taqozo etmoqda. Albatta, bu jarayonda tilning sofligiga jiddiy xavf tug'ilishi, hatto internatsional so'zlar ulushining keskin oshishi natijasida til leksikasi boshqacha qiyofa kasb etishi mumkin. Ana shu mudhish xavfning oldini olish uchun ham zarur choralarni ko'rish bugungi kunning dolzarb masalalaridandir.

Til sofligi va to'kisligi, muntazamligi uchun qayg'urish o'tgan asrda yashagan jadid va ma'rifatparvar ziyolilarimizning mushtarak maslagi bo'lgan. Bizningcha, bugungi kunda ham mazkur masalaga jiddiyoq qarash foydadan xoli emas. Zero, til yashovchanligi uchun millat ahlining ham muayyan sa'y-harakatlari, tashabbuskorligi talab qilinadi.

Olimlar haqli ta'kidlaganidek, "hayotda (dunyo miqyosida) paydo bo'layotgan yangi-yangi narsa-hodisalarni ifodalash uchun ...tilning o'z imkoniyatlari asosida yangi so'z yaratiladi yoki boshqa

tilda shu narsa, tushunchaning ifodachisi bo'lgan so'z o'zlashtiriladi" (14, 149). Til tadrijiy rivoji jarayonida sodir bo'ladigan bu kabi o'zgarishlarda millat ahlining oqilona va odilona yo'l tutib, so'z o'zlashtirish jarayonida zaruriy me'yor va mezonlarga amal qilishi ham til sofligi va boqiyiligi uchun katta ahamiyatga ega. Ayniqsa bu jarayonda til leksikasining to'kislashuvi uchun ichki imkoniyatlarga tayanish til mukammalligi va muntazamligi uchun ham muhim jihat sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Азимов И. Ўзбек тилини адабий тил даражасига кўтариш йўлидаги ҳаракатлар // Ўзбек тили ва адабиёти, 2014. — № 2. — Б. 152–158.
2. Ўзбек адабий тили тўғрисида қарор // “Аланга” журнали, 1929, — № 5, Б. 4–8.
3. Билиш фалсафаси (тузувчи ва таржимон Қ. Назаров). — Т.: “Университет” нашриёти. 2005. — 134 б.
4. Быкова Г.В. Лакуарность как категория лексической системологии — Благовещенск: Изд-во БГПУ, 2003. — 314 с.
5. Жомонов Р. Ўзбек тилининг изоҳли луғати учун диалектизмлардан сўз танлаш принциплари ва уларнинг берилиши: Филол. фанлари номзоди... дис. — Т., 1991. — 203 б.
6. Зуфаров С. Ўзбек тилининг Сайрам шеvasи: Филол. фанлари номзоди... дис. — Т., 1966. — 124 б.
7. Каримов Ғ. 20-30 йиллар ўзбек адабий тилининг ривожланиш масалалари (от туркумидаги сўзлар бўйича): Филол. фанлари номзоди... дис. — Т., 1972. — 141 б.
8. Кайдаров А. Т. Уйгурские диалекты и диалектная основа литературного языка: Дисс... докт. филол. наук. — Баку, 1969. — 150 с.
9. Маҳмудов Н. Тил тилсими тадқиқи. — Т.: Mumtoz so'z, 2017. — 178 б.
10. Маҳмудов Н. Ўзбек тили луғат бойлиги ривожда фаоллашган жараёнлар // Ўзбек тили ва адабиёти, — 2015. — № 5. — Б. 3–16.
11. Неъматов Ҳ., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. — Т.: Ўқитувчи, 1995. — 128 б.
12. Одилов Ё. Глобаллашув даври публицистикаси тилининг тараққиёти. — Т.: “Nodirabegim” нашриёти, 2020. — 140 б.
13. Ўзбек тилининг изоҳли луғатини тузиш учун қўлланма. — Т.: Фан, 1964. — 480 б.
14. Ҳожиёв А. Совет даврида ўзбек адабий тилининг тараққиёти. III томлик. 3-том (Сўз ясалиши ва лексика). — Т.: Фан, 1991. — 188 б.

References

1. Azimov I. *Uzbek language and literature*, 2014, No. 2, pp. 152-158.
2. *Alanga*, 1929, No. 5, pp. 4-8.

3. Nazarov Q. *Bilish falsafasi* (Philosophy of Knowledge), Tashkent: Universitet publishing house, 2005, 134 p.
4. Bykova G.V. *Lakunarnost kak kategoriya lexiceskoy sistemologii* (Lacunarity as a Category of Lexical Systemology), Blagoveshchensk: Izd-vo BGPU, 2003, 314 p.
5. Jomonov R. *Uzbek tilining izoxli lugati uchun dialektizmlardan suz tanlash prinsiplari va ularning berilishi* (Principles of Choosing Words from Dialectisms for the Explanatory Dictionary of the Uzbek Language and their Assignment), candidate's thesis, Taskent, 1991, 203 p.
6. Zufarov S. *Uzbek tilining Sajram shevasi* (Sayram Dialect of the Uzbek Language), candidate's thesis, Taskent, 1966, 124 p.
7. Karimov G'. *20-30 jillar uzbek adabiy tilning rivozhlanish masalalari* (Issues of the Development of the Uzbek Literary Language in the 20s-30s (by Nouns)), candidate's thesis, Taskent, 1972, 141 p.
8. Kaydarov A. T. *Ujgurskie dialekty i dialektnaja osnova literaturnogo jazyka* (Uyghur Dialects and Dialectal Basis of Literary Language), Doctor's thesis, Baku, 1969, pp. 150.
9. Mahmudov N. *Til tilsimi tadkiki* (Linguistic Studies), Taskent, Classical Word, 2017, 178 p.
10. Mahmudov N. *Uzbek language and literature*, 2015, No.5. pp. 3-16.
11. Nematov H., Rasulov R. *Uzbek tili sistem leksikologijasi asoslari* (Basics of System Lexicology of the Uzbek Language), Taskent: Teacher, 1995, 128 p.
12. Odilov Y. *Globallashuv davri publicistikasi tilining tarakkijoti* (The development of the language of journalism in the era of globalization), Taskent, Nodirabegim publishing house, 2020, 140 p.
13. *Uzbek tilining izohli lugatini tuzish uchun kullanma* (Guide to compiling an explanatory dictionary of the Uzbek language), Taskent: Science, 1964, 480 p.
14. Hojiev A. *Sovet davrida uzbek adabiy tilining tarakkijoti* (Development of the Uzbek Literary Language during the Soviet period), Roof III, Volume 3, Taskent: Science, 1991, 188 p.